

MAKTAB JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLAR O'RNI

Ibragimov Aziz Tulkunovich

TDPU dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7311734>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakatli o'yinlar vositasida estetik tarbiyalashning didaktik talablari borasida fikrlar keltirilgan bo'lib, didaktik talablarni amalda samarali qo'llanilishi orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: harkatli o'yinlar, metodika, tayyorgarlik, vosita, ovoz, mimika, yosh xususiyatlari.

МЕСТО ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИГР НА ШКОЛЬНЫХ УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье излагаются взгляды на дидактические требования эстетического воспитания учащихся начальных классов посредством подвижных игр, а также вносятся предложения по эстетическому воспитанию учащихся посредством эффективного применения дидактических требований на практике.

Ключевые слова: подвижные игры, методика, подготовка, средства, голос, мимика, возрастные особенности.

THE PLACE OF ACTIVITY GAMES IN SCHOOL PHYSICAL EDUCATION LESSONS

Abstract. In this article, The views on didactic requirements of aesthetic education of Primary School students through moving games are given, and proposals on aesthetic education of students are made through the effective application of didactic requirements in practice.

Key words: open games, methodology, preparation, means, voice, facial expressions, age characteristics.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lif-tarbiyani takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, unda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy, jismoniy hamda estetik madaniyatini shakllantirish uchun tashkiliy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning metodik tizimini ishlab chiqish dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Respublikamizning birnchi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 29 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'rurasida, "biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", – deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda ta'lif tizimining umumiy o'rta ta'lif bosqichida o'quvchi-yoshlarni yuksak ma'naviyatli, estetik didli, axloqli va ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

Estetika insoniyatning mehnati va o'z faoliyatidan boshlanadi. Bu esa uni o'rab turgan muhit va o'zini shakllantirishga yo'naltirilgan borliqqa bo'lgan estetik munosabati, uning o'zining faoliyatidan kelib chiqadi. Harakatlardagi estetikani anglash va uni xis qilish o'z faoliyatida harakatli o'yinlarni qo'llash vositasida ma'naviy kuch sifatida shaxsning estetik

rivojlanishidagi asosni tashkil etadi. Bolaning faoliyati qiyin va mushkul tus olmay unga estetik zavq bag‘ishlashi uchun, ma’naviy ko‘tarinkilik ruhida uni amalga oshirish harakatlarni aniqligi va go‘zalligi vaqtini tejalishiga, o‘quvchining ruhlantirishga hamda mazkur jaryonga diqqat-e’tiborini tortishga olib keladi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlar vositasida o‘quvchilarini estetik tarbiyalash borasida dars jarayonini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun ularni (milliy harakatli o‘yinlarning) rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda ta’lim tizimining umumiy o‘rta ta’lim bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak ma’naviyatli, estetik didli, axloqli va ma’rifatli, bir so‘z bilan aytgada, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko‘nikma va malakalar sohibi bo‘lishi muhimligini ta’kidlaydi. Jumladan, ta’lim va tarbiya ishlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy harakatli o‘yinlarning estetik asoslarini anglash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirish alohida e’tiborni talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida o‘quvchilarini zamonaviy usullar asosida estetik tarbiyalashda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi utuvor tarzda qarilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiyadan DTS o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra jismoniy tarbiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Ammo amaldagi dasturlar bo‘yicha tuzilgan o‘quv qo‘llanmalarda taqdim qilinayotgan topshiriqlar har doim ham harakatli o‘yinlar o‘quvchilarini estetik tarbiyalashga mo‘ljallanmagan.

Shu maqsadda amaldagi dasturning tuzilishi, mazmuniga putur yetkazmagan holda unga o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan asosiy talablarni hisobga olib, dars mazmuniga emotSIONAL yuklama, o‘zining estetik mazmuniga ega bo‘lgan harakatli o‘yinlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash ularning estetik ehtiyojlarini faollashtiruvchi materiallar kiritildi.

Shuningdek, o‘quvchilarini zarur bo‘ladigan talablar, tavsiyalar, eslatmalar, milliy harakatli o‘yinlar nazariyasi va amaliyotiga estetika bilan bog‘lik bo‘lgan faoliyatning har xil turlari bo‘yicha metodlar bilan ta’minalash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq o‘yinlalarga qiziqish muammosi asosiy maqsadni chetlab o‘tmasligi kerak. O‘quvchilarining harakatli o‘yinlar orqali estetik tarbiyalash jismoniy tarbiya darslarining tuzilishi, mazmuniga singib ketishi, uning tarkibidan o‘rin egallashi, ayni paytda o‘ziga xos nufuziga ega bo‘lishi, shu bilan birga estetik mazmundagi o‘yinlar maroqli, emotSIONAL jo‘shqinliklarga ega bo‘lishi lozim.

Harakatli o‘yinlar garmoniyasi ichki ma’naviy go‘zallikni yaratadi, bu esa epchillik, harakatlar aniqligi, bu harakatlarni amalga oshirayotganda o‘ziga ishonch va albatta, ko‘tarinki kayfiyat ritmida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilar tomonidan muhim estetik qadriyat sifatida qabul qilinadi va baholanadi.

Harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarini estetik tarbiyalash – maqsadga yo‘naltirilgan jarayon hisoblanib, shaxsni borliqdagi go‘zallikni to‘liq qabul qilish va to‘g‘ri tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. U estetik tasavvurlar, qarashlar, estetik ong va estetik did tizimini ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Bir vaqtning o‘zida bu jarayon o‘quvchilarda hayotiy jarayonda barcha sohalar orqali go‘zallik elementlarini krita olish qobiliyati va

intilishlarini tarbiyalaydi. Estetik tarbiya inson tomonidan faqatgina birligina san'at sohasi orqali namoyon bo'lishi bilangina chegaralanmaydi, u barcha ijodiy yondashilgan faoliyatda mavjuddir. Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash nafaqat mazmun, balki metodik jihatidan ham rang-barang hamda keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Harakatli o'yinlar jarayonida estetik tarbiya funksiyalari quyidagi metodlar orqali izohlanadi:

- harakatli o'yinlarning emotsiyalizohini ko'rsatib tushuntirish;
- harakatlarning texnik maromiga yetkazdirib va emotsiyalizohda izohlash, bu go'zallikka ta'sirlanish hissini keltirib chiqarish;
- harakatlarda va faoliyatlarda rohatlanish hissini namoyon etish;
- harakatli o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida harakat faoliyatida go'zallikni ijobiy namoyon bo'lishiga amaliy o'rgatish.

Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yilgan darsga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o'yinlarning vazifalari, o'quv materiallari mazmuni bilan o'quvchilarining bilish faoliyatları hamda mashg'ulotlarni tashkil etishning metoddari va usullarining o'zaro uyg'unligi;

- o'yindagi vazifalarni aniq qo'yish hamda ularning asosiy harakatlariga va estetikasiga alohida e'tibor berish;

- o'quvchilarda harakatli o'yinlarning estetik sifatlarini shakllantirishni faollashtirish;
- didaktik imkoniyalardan unumli foydalanish;
- darsning mazmuni va metodlarining qulaylik holatda tuzish;
- materiallarni o'zlashtirishda harakatli o'yinlarning optimal darajasini ta'minlash (sinflar bo'yicha);

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olish;

- o'quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- dars materiallarining moddiy mavjudligi.

Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda beriladigan topshiriqlar ham muayyan talablar asosida amalga oshiriladi.

Milliy harakatli o'yinlarning o'tkazish jarayonida quyiladigan vazifa va topshiriqlarning talablari:

- harakatli o'yinlarning xilma-xilligi;
- harakatli o'yinlar vositasida o'quvchilarda estetik xis va didni tarbiyalash;
- o'rtoqlari xatti-harakatida va o'zining o'rab turgan muhitdagi go'zallikni topa olish qobiliyatini tarbiyalash;
- o'quvchilar tomonidan egallangan harakatli o'yinlardagi estetik tarbiya hamda muayyan ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni amalga oshirishdan iborat bo'lmagligi lozim;

Vazifalarni bajarishga bo'lgan umumiy talablar:

- istak, qiziqish, emotsiyalizohini ko'tarinkilik;
- bajaradigan maqsadi harakatlarini aniq anglash;
- vazifani bajarish jarayoniga to'liq jalb etilishi;
- natija nafaqat o'zi uchun, balki o'zgalar uchun ham kerakligi;
- o'z-o'zini baholash. Og'zaki bilan ko'rgazmali, so'z, ko'rgazmalilik, harakatning

o‘zaro mustahkam aloqasi amaliy tadqiqotning xususiyatlaridan iborat bo‘ladi.

Dasturda harakatli o‘yinlarning turlari taklif etilar ekan, ularning tarixiy-nazariy xamda estetik xususiyatlarini anglashga yo‘naltirish va bu bilimlar jismoniy tarbiya darslarida hizmat qilishi uchun muayyan darajada diqqat markazida bo‘lishi nazarda tutiladi hamda dastur materiallarini o‘zlashtirishda quyidagi umumiy talablar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan harakatli o‘yinlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berish;
- asosiy harakatlar va mashqlar, ularning mazmuni hamda bajarishdagi estetik jihatlarni ta’riflab berish;
- jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlar dars jarayonida qo‘llanilishidan maqsad, u o‘quvchilarga nimalar berishi haqida hikoya qilish;
- harakatli o‘yinlardagi nafosatni o‘quvchilar ongida shakllantiriish.

Shu nuqtai nazardan yuqorida sharhlab o‘tilgan didaktik talablarni nechog‘lik amalda samarali qo‘llanishi aynan jismoniy tarbiya darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashda harakatli o‘yinlarning mazmuni bilan bog‘liq.

REFERENCES

1. Karakhanova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – C. 35-39.
2. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – C. 68-70.
3. Jurayev R. K., Karakhanova L. M. Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – T. 29. – №. 8. – C. 3500-3505.
4. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 315-321.
5. Juraev R. X., Karaxonova L. M. media ta'limi maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini oshirish omili sifatida / / hayot davomida ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uzlucksiz ta'lim. – 2013. - S. 322-323.